



# SAMARQAND VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



## Korxonalar va tashkilotlar

(2019-yil 1-aprel holatiga)

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Ro'yxatdan  
o'tgan

29172  
ta.

2019-yilning yanvar-mart oylarida viloyatda 3077 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1906 taga ko'pdir.

Faoliyat  
ko'rsatayotgan

27889  
ta.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 5985 ta (27,3 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 27889 tani tashkil etgan.

Yangi tashkil  
etilganlar

3077  
ta.

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.


# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-aprel holatiga)

29172 tani  
tashkil etdi

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar  
soni, birlikda




25,4 %

O'tgan yilning shu  
davriga nisbatan  
o'sish sur'ati

2019-yilning 1-aprel holatiga 29172 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 25,4 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 24,2 % savdo, 19,0 % sanoat, 8,7 % qurilish, 7,6 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,8 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,1 % tashish va saqlash, 1,6 % axborot va aloqa, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 26,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (7052 ta) savdo, (5555 ta) sanoat, (2548 ta) qurilish, (2220 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, (2001 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (909 ta) tashish va saqlash, (604 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, (478 ta) axborot va aloqa, hamda (7808 ta) boshqa faoliyat turlariga to'g'ri kelmoqda.

# Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **27889** tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 5985 ta (27,3 %) ga o'sgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, %


(dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari)




Savdo




Sanoat



Qurilish




Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar




Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish




Axborot va aloqa



Boshqa turlar

# Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'p Samarqand shahri (8739 ta), Urgut (2459 ta), Pastdarg'om (2193 ta), Samarqand (1936 ta) va Payariq (1503 ta) tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Qo'shrabot (625 ta), Paxtachi (706 ta) hamda Nurobod (751 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

# Yangi tashkil etilgan

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-mart oylarida 3077 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 1906 taga ko'pdir.

Yangi tashkil etilgan korxonalarining o'sish sur'ati, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (1221 ta), sanoat (716 ta), qurilish (238 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (181 ta) sohalarida yangi tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (28 ta), axborot va aloqa (42 ta) hamda tashish va saqlash (60 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi



181

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



322

Sanoat



716

Axborot va aloqa



42

Qurilish



238

Tashish va saqlash



60

Savdo



1221

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



28


Boshqa turlar

i

269


# Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Samarqand shahri (1001 ta), Samarqand (311 ta), Ishtixon (224 ta) va Pastdarg'om (207 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Narpay (62 ta) va Qo'shrabot (66 ta) tumanlarida hamda Kattaqo'rg'on shahrida (66 ta) korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajada.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar yillar kesimida



■ Korxonalar sonini o'sishi, birlikda



# Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-aprel holatiga)

**Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar va tashkilotlar soni 23565 tani tashkil qildi.**

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda

Mas'uliyati cheklangan jamiyati




Xususiy korxonona




Oilaviy korxonona



Unitar korxonona




Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



430 ta


**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni.**

**O'tgan yilning shu davriga nisbatan 41,0 % o'sgan.**


**Asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.**

2019-yil 1-aprel holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 430 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 125 taga yoki 41,0 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 314 tasi qo'shma, 116 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda



Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Samarqand shahrida 221 ta (jamidagi ulushi 51,4 %), Urgut tumanida 40 ta (9,3 %) va Jomboy tumanida 35 tani (8,1 %) tashkil etgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Qo'shrabot 3 ta (0,7 %), Narpay 5 ta (1,2 %), Paxtachi 5 ta (1,2 %), Nurobod tumanlarida 7 ta (1,6 %) hamda Kattaqo'rg'on shahrida 7 tani (1,6 %) tashkil etgan.




# Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.



# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar




## 1 Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar


2019-yilning yanvar-mart oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 36 tani tashkil etgan.

Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9 taga ko'paygan.

Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 5 ta, Turkiya Respublikasi – 7 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 6 ta, Qozog'iston Respublikasi – 2 ta va Koreya Respublikasi – 2 ta korxonalar yangi tashkil etilgan.



# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan 18 ta sanoat, 5 ta qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 3 ta savdo, 3 ta qurilish va 2 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

**(2019-yil 1-aprel holatiga)**



*2019-yil 1-aprel holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 22373 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 32,8 % ga oshgan.*

*2019-yil yanvar-mart oylarida 2940 tadan ziyod kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 1852 taga ko'proqdir.*





•Kichik tadbirkorlik  
sub'ektlarining eng katta  
ulushi

•Kichik tadbirkorlik  
sub'ektlarining eng kichik  
ulushi

•Samarqand shahri  
33,3 %

•Oqdaryo tumani  
3,9 %

•Urgut tumani  
9,0 %

•Kattaqo'rg'on shahar  
3,6 %

•Pastdarg'om tumani  
7,7 %

•Bulung'ur tumani  
3,5 %

•Samarqand tumani  
7,4 %

•Jomboy tumani  
3,4 %

•Ishtixon tumani  
5,5 %

•Narpay tumani  
3,0 %

•Payariq tumani  
5,2 %

•Nurobod tumani  
2,4 %

Kattaqo'rg'on tumani  
4,2 %


•Paxtachi tumani  
2,1 %

•Tayloq tumani  
4,0 %

•Qo'shrabot tumani  
1,8 %

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 22373 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 6700 ta (29,9 %) – savdo, 5284 ta (23,6 %) - sanoat, 2413 ta (10,8 %) - qurilish, 2037 ta (9,1 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1906 ta (8,5 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 855 ta (3,8 %) - tashish va saqlash, 482 ta (2,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 438 ta (1,9 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 2258 tasi (10,3 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Savdo

41,4 %



Sanoat

24,3 %



Qurilish

8,1 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

10,9 %



Tashish va saqlash

2,0 %



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

6,0 %



Axborot va aloqa

1,2 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

1,0 %




Boshqa turlar

4,9 %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdo 1218 ta, sanoat 715 ta, qurilish 237 ta va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 180 ta tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish 28 ta, axborot va aloqa 42 ta hamda tashish va saqlashda 60 ta tashkil etilgan.


# Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni, birlikda




Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Samarqand shahri (972 ta), Samarqand (302 ta), Ishtixon (216 ta) va Pastdarg'om (200 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Narpay (59 ta) va Qo'shrabot (60 ta) tumanlari hamda Kattaqo'rg'on shahrida (64 ta) tashkil etilgan.

# Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda

(1-aprel holatiga)



● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan  
● Yangi tashkil etilgan




● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan  
● Yangi tashkil etilgan

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda

2019-yil 1-aprel holatiga



# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 32,8 % yoki 1050 tasi sanoat, 27,7 % yoki 887 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 21,5 % yoki 690 tasi savdo, 8,6 % yoki 275 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,2 % yoki 39 tasi axborot va aloqa, 1,0 % yoki 32 tasi qurilish, 0,8 % yoki 27 tasi tashish va saqlash, 0,4 % yoki 12 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 6,0 % yoki 192 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Samarqand viloyati  
statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni  
yuritish bo'limi .  
Tel.:71-230-85-42(43)**